



## QO'QON XONLIGI SHAHARLARI FAOLIYATI TARIXIDAN

**Axatova Gavhar Shodiyor qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qo'qon xonligi faoliyati davrida mavjud bo'lgan shaharlar va ularning o'ziga xos tarixi va tavsifi haqida ma'lumotlar berilgan. Xonlikning markaziy shahri Qo'qon va o'zining strategik joylashuvi, savdo-sotiq tarmoqlarining rivojlanganligi bilan ajralib turgan Andijon, Namangan, Marg'ilon, Toshkent, Shahrixon, Chust, Rishton kabi shaharlar tarixi mavjud manba va adabiyotlar tahlili asosida atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Qo'qon xonligi, Markaziy Osiyo tarixi, Qo'qon shahri, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Toshkent, Shahrixon, Chust, Rishton, tashqi va ichki savdo aloqalari.

Qo'qon xonligi O'rta Osiyoning tarixiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan davlatlardan biridir. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida xonlik Markaziy Osiyoning yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylangan. Xonlik tarkibidagi shaharlar, jumladan, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Toshkent va boshqa maskanlar nafaqat hududiy boshqaruv, balki hunarmandchilik, savdo va madaniyat rivojlanishining markazlari bo'lgan. Ushbu maqolada Qo'qon xonligi shaharlari tarixiy taraqqiyoti, ularning iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rni, shuningdek, arxitektura va ijtimoiy tuzilma jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu kichik ilmiy izlanish Qo'qon xonligi shaharlarining Markaziy Osiyo tarixidagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Qo'qon xonligining shaharlari Ipak yo'lining muhim chorrahalarida joylashgan bo'lib, bu hududlar savdo, hunarmandchilik va xalqaro aloqalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Xonlik shaharlari o'ziga xos arxitektura



yodgorliklari, masjidlar, madrasalar va bozorlar bilan tanilgan. Ayniqsa, Qo'qon shahri xonlikning siyosiy va madaniy markazi sifatida ajralib turgan. Mahalliy tarixchi va arxeologlar orasida shaharning yoshi 2 ming yildan ziyod degan taxmin mavjud. Qo'qonga oid dastlabki ma'lumotlar X asr yozma manbalarida uchraydi. Etimologiyasi haqida turli taxminlar bor bo'lib, xususan, Istaxriy va Ibn Havqal asarlarida „Havokand“ (Ho'kand) shaklida, ya'ni „go'zal“, „yoqimli“ yoki „shamol shahri“ ma'nosida uchraydi. Keyingi asrlarda „Ho'qandi latif“ degan atama ham ishlatilgan[4].

Qo'qonning XVIII asrgacha bo'lgan siyosiy tarixi haqida ma'lumotlar juda oz. Qo'qon qadimda Hindiston va Xitoyga boriladigan karvon yo'lida joylashgan bo'lib, XIII asrda mo'g'ullar tomonidan butunlay vayron qilingan. Shundan keyin XVIII asrgacha Qo'qon kichik aholi turar joyi sifatida mavjud bo'lgan. 1709-yili Qo'qon xonligi tashkil topgach, 1711-yili Eski qo'rg'on qal'asi o'rnida hozirgi Qo'qon shahriga asos solindi, istehkom va qal'a barpo etildi. 1732 yili Abdurahimbiy bu ishni nihoyasiga yetkazdi va shaharni xonlik poytaxtiga aylantirdi[6]. Shu davrdan boshlab shahar Qo'qon deb atala boshladi. Shaharning mustahkam devori, 12 darvozasi bo'lib, Qo'qon hududi 12 ma'muriy bo'lak (daha)ga taqsim qilingan.

Qo'qon xonligidagi yana bir shahar Marg'ilon bo'lib, bu shaharning 2007-yil YUNESKO qaroriga binoan 2000 yillik tantanalari o'tkaziladi. Marg'ilon to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlar X asrga taalluqlidir. O'sha davrlarda shahar „Marg'inon“ deb atalgan va keyinchalik har ikki nomi ham ishlatilib kelingan. Marg'ilon nomining kelib chiqishi haqida aniq bir ma'lumot yo'q. Ayrim toponimistlar „marg“ — „maysazor“, „o'tzor“dan deb taxmin qiladilar. Marg'ilon „murg“ va „yunon“ so'zlaridan degan mahalliy to'qima rivoyat ham bor[1].

Is'hoqxon Ibratnining „Tarixi Farg'ona“ qo'lyozma asarida yozilishicha, shaharga 883-yilda asos solingan. Arxeologik topilmalar Marg'ilon o'rnida milodning boshlaridan aholi yashab kelayotganligini, X asrda u katta qishloq



bo‘lganligini, XI-XII asrlarda esa shaharga aylanganligi tasdiqlamoqda. V. V. Bartold „Mo‘g‘ullar istilosi davrida Turkiston“ asarida Qoraxoniylar davrida ham Marg‘ilon viloyatning bosh shahri hisoblanganligini qayd etgan.

„Boburnoma“da Marg‘ilon Farg‘onadagi 8 ta shahardan biri ekanligi, shaharning obodligi, shirin mevalari haqida so‘z yuritilib, uning „donai kalon“ deb ataluvchi anori va „subhoniyy“ navli o‘rigi maqtaladi[6]. Shaharning qadimgi qismida o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida Marg‘ilonga bundan 2 ming yil avval asos solinganligi aniqlandi. Mahalliy ma‘lumotlar bo‘yicha shaharning 12 darvozasi bo‘lgan. 1710-1876-yillarda Qo‘qon xonligi davrida shahar Marg‘ilon bekligi markazi, xonlikning muhim strategik ahamiyatga molik kenti bo‘lgan. Shuningdek, Marg‘ilonni „Sunduqul orifiyn“ (Oriflar sandig‘i) deydilar. Bunga sabab esa bu shahardan juda ko‘p olimu fuzalo, oriflarning chiqqanidir.

Andijon-shahar toponomiyasi haqida turli tadqiqodlar, har xil fikrlarni ilgari suradilar. Hozirgi kunda ko‘plab olimlar yakdil fikrga kelishdi. Unga ko‘ra, „Andijon“ nomi so‘g‘dcha „adoq“, ya‘ni „yakun“, „oxir“ va „kon“ – „ariq“, „soy“ so‘zlarining birlashuvidan kelib chiqqan. Ya‘nikim „Adoqkon“ degani „Soyning oxirida joylashgan yer“ ma‘nosini anglatadi. Bu shahar Arab xalifaligi davrida Andukon deyilgan[5].

Andijon ilk bor yozma manbalarda X asr arab sayyoxlari Ibn Havqal va Muqaddasiy asarlarida Andukon shaklida qayd etilgan. Andijon XIV asr 70-yillarida Farg‘ona vodiysi bilan birga Amir Temur davlati tarkibiga kirgan. XV asr ikkinchi yarmidan Temuriylar davlatiga qarashli Farg‘ona viloyatining poytaxti bo‘lgan. Ayniqsa Umarshayx Mirzo va uning o‘g‘li Zahiriddin Muhammad Bobur davrida shaharda xo‘jalik, fan, madaniyat rivoj topgan.

1710-yilda Qo‘qon xonligi tarkibiga kirgan va Rossiya Qo‘qon xonligini butunlay bosib olguniga qadar (1876-yil gacha) Andijon bekligining qarorgohi bo‘lgan. Shahar o‘zining hunarmandchilik buyumlari, ip va ipak gazlamalari bilan shuhrat qozongan[2]. XIX asr o‘rtalarida Andijon 4 dahaga bo‘lingan edi. Har bir



dahaning qozisi, mingboshisi bo'lgan. Dahalar oqsoqol boshliq mahallalarga bo'lingan.

Farg'ona vodiysining qad. poytaxti Axsikat (Axsikent) 1620-yildagi qattiq zilzila natijasida vayron bo'lganligi sababli, uning aholisi hozirgi Namangan shahri hududiga ko'chib o'tgan. Namangan tuz koni ("Namak kon") yaqinida vujudga kelgan bo'lib, shahar nomi o'rta asrlarga oid tarixiy xujjatlarda birinchi marta tilga olinadi. Zahiriddin Bobur o'zining "Boburnoma" asarida Namangan qishlog'i haqida gapirib o'tgan. V. P. Nalivkinning ("Qo'qon xonligining qisqacha tarixi" asarida) yozishicha, Namangan 1643-yilga mansub vaqf hujjatlarida uchraydi[6]. XVIII asrda Namangan Qo'qon xonligiga tobe bo'lgan. Biroq viloyatni boshqaruvchi bek qarorgohi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan. U faqat shahar aholisigina emas, balki atrofdagi tumanlar aholisiga ham xizmat qiluvchi hunarmandchilik markazi bo'lgan. Dehqonlar Namangan bozorlarida ip va gazlamalar, mis idishlar, zargarlik buyumlari va mehnat qurollarini sotib olishgan. Shaharda me'morlik sezilarli darajada taraqqiy etgan.

Namangan aholisi kuchi bilan 1817-1822-yillarda katta Yangiariq kanali qazilib, suv ta'minoti yaxshilandi. 1842-1845-yillarda shahar baland devor bilan o'rab olingan. 1813-1814-yillarda Namanganga kelgan rus ofitseri F. Nazarov bu yerda shahar hokimining devor bilan o'ralgan saroyida ancha katta garnizon borligini aniqlagan. Qo'qon xonligi hukmronligining so'nggi kunlarigacha Namangan bek qarorgohi bo'lib keldi.

Toshkent 2200 yildan ortiq tarixga ega, bu davr ichida u mudofaa devori bilan o'ralgan qal'adan jahondagi yirik shaharlardan biridir. Shahar sifatida Toshkent haqidagi birinchi ma'lumotlar eramizdan avvalgi II asrdagi qadimgi-sharqiy manbalarda uchraydi. Xitoy manbalarida Yuni deb atalgan, Fors shohi Shopur I qaydnomalarida Toshkent vohasi Choch deb nomlangan.

Shahar „Toshkent“ nomi bilan dastavval XI asrning mashhur allomalari – Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg'ariyning asarlarida tilga



olinadi. Beruniy „Hindiston“ asarida Toshkent nomining kelib chiqishi to‘g‘risida so‘z yuritib, „Tosh“ so‘zi asli turkcha bo‘lib, Shosh ko‘rinishini olgan. „Toshkand – toshli qishloq demakdir“, deb izohlaydi. Mahmud Qoshg‘ariyning ma‘lumoti bo‘yicha, Toshkent XI-XII asrlarda „Tarkan“ deb ham yuritilgan[3].

XVII asrda yashagan tarixchi olim Mahmud ibn Vali shunday yozadi: „Shosh – Sayxun (Sirdaryo)ning u tomoniga joylashgan shahar va Turkiston (viloyat)ga qaraydi... Uni Choch deb ataydilar. Biroq hozirgi vaqtda u Toshkent nomi bilan mashhurdir“[1].

Toshkent vohasida shahar madaniyatining shakllanib, shaharning qad ko‘tarishi shu o‘lkada yashagan qadimgi chorvador va dehqonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi ulkan tarixiy jarayon bo‘lib, bu jarayon shubhasiz o‘lkaning o‘zlashtirilib, obod etilishi, ayniqsa, unda chorvachilik va dehqonchilik xo‘jaliklarining tashkil topishi hamda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivojlanish tarixi bilan uzviy bog‘liqdir.

Nabvatdagi fikr yurtladigan shahar Rishton bo‘lib, u XVIII asrda yirik harbiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan qal‘a bo‘lgan. Bu yerda Xitoy, Hindiston, keyinchalik rus savdogarlari to‘xtab o‘tganlar. Rishtonda qadimdan kulolchilik rivojlangan. Mashhur Rishton kulollarining mahsulotlari Sharq bozorlarida juda haridorgir bo‘lgan. Hozirgi kunda ham Rishton ustalari tomonidan ishlangan sopol lagan, shokosa, ko‘zalar va sopolidan ishlangan badiiy buyumlar respublikadan tashqarida ham mashhur.

Farg‘ona vodiysidagi eng qadimiy shaharlardan biri Chust bo‘lib, XVI asrda shahar bir nechta kichik qal‘alardan iborat edi. Keyinchalik esa bu qal‘alarni o‘rab turgan devor qurilgan. 1882-yilda qal‘a devorlari vayron bo‘lib, Qo‘qon xonligi davrida shahar kengaya boshladi[3] hamda vaqt o‘tishi bilan Chust sanoat markaziga aylanib bordi.

Shahrixon shahri 1809-1821- yillarda Qo‘qon xoni Amir Umarxon farmoni bilan qurilgan. O‘sha davrda xon farmoni bilan



Shahrixon bozoriga kelib savdo qiluvchilardan yig'im puli olinmagan. Natijada shaharga keluvchi karvonlar soni ko'paygan. XIX asr oxirida shaharda bir qancha korxonalar, shu jumladan, paxta tozalash zavodi ishlab turgan, 27 ta guzar, O'rda masjidi va minoralar bo'lgan[6].

Shahrixon hunarmandchilik buyumlari bilan mashhurdir. Ayniqsa, pichoqchilik, beshikchilik, kosibchilik, do'ppido'zlik, misgarlik hunarlari san'at darajasiga yetgan.

Qo'qon xonligi shaharlari Ipak yo'lining muhim nuqtalarida joylashgani sababli, bu hududlar xalqaro savdoda faol ishtirok etgan. Xitoy, Hindiston, Rossiya va Eron kabi davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. Savdolarida ipak, paxta, qo'l san'atlari mahsulotlari, ziravorlar va qimmatbaho metallar muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'qon bozorlari Markaziy Osiyodagi eng gavjum savdo markazlari bo'lgan. Bu yerda mahalliy va xorijiy savdogarlar o'zaro savdo qilish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Ayniqsa, Marg'ilon va Andijonda ishlab chiqarilgan ipak matolar xalqaro bozorlarda katta talabga ega bo'lgan[2]. Qo'qon xonligi shaharlari diniy va madaniy hayoti bilan ajralib turgan. Shaharlarda ko'plab masjidlar va madrasalar qurilgan bo'lib, ular ilm-fan va diniy ta'lim markazlari sifatida faoliyat olib borgan. Qo'qon xonligida islom dinining an'analari chuqur ildiz otgan bo'lib, bu xonlik madaniy hayotining asosini tashkil etgan. Shu bilan birga, shaharlarda bayramlar, jamoaviy namozlar va boshqa diniy tadbirlar muntazam o'tkazilib, ular xalqning birdamligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Qo'qon, Andijon va Marg'ilondagi masjid va madrasalar nafaqat diniy ahamiyatga ega bo'lib, balki madaniy merosning muhim qismini tashkil etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Qo'qon xonligi shaharlari Markaziy Osiyoning tarixiy rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu shaharlarda iqtisodiyot, savdo, hunarmandchilik va madaniyat bir butunlikda rivojlangan bo'lib, ular xonlikning umumiy qudratini belgilab bergan. Qo'qon



shahri xonlikning siyosiy va ma'muriy markazi sifatida tanilgan bo'lsa, Andijon va Marg'ilon savdo va ipakchilikning asosiy maskanlari sifatida mashhur edi. Namangan esa bog'dorchilik va dehqonchilik mahsulotlari bilan tanilgan. Shaharlarda qurilgan masjidlar, madrasalar va boshqa arxitektura yodgorliklari Qo'qon xonligi madaniyati va dinining yuksak darajasini ko'rsatadi. Savdo aloqalarining rivojlanganligi xonlikning xalqaro miqyosdagi mavqeyini oshirgan. Xonlik shaharlari o'z davrida Ipak yo'li chorrahasida joylashgan muhim markazlar bo'lib, bu hududlarning iqtisodiy va madaniy barqarorligini ta'minlagan. Qo'qon xonligi shaharlari o'zining boy tarixi, madaniy merosi va iqtisodiy salohiyati bilan nafaqat o'z zamonasida, balki bugungi kunda ham diqqatga sazovor hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Aliyev A. Qo'qon xonligi va uning merosi. Toshkent. 2015. 42-45-b.
2. Karimov K. Ipak yo'li va Qo'qon xonligining savdo aloqalari. Toshkent. 2005. 23-27-b.
3. Matboboyev B. Qo'qon xonligi shaharsozlik tarixi. Toshkent. 2003. 51-60-b.
4. Muhammadjonov H. Qo'qon shahri va uning tarixiy yodgorliklari. Qo'qon. 2010. 15-21-b.
5. Rasulov, R. Markaziy Osiyo shaharlarining tarixiy rivojlanishi. Toshkent. 1998. 31-34-b.
6. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org) internet sayti